

## 5-9-SINF O'QUVCHILARIDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI-METODIK MODELI (NUTQ USLUBLARINI O'QITISH ASOSIDA)

*O'rinova Diyora,*

*NamDPI magistranti*

*+998996159544*

*[diyoraorinova@gmail.com](mailto:diyoraorinova@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 5–9-sinf o'quvchilarida nutq uslublarini o'qitish orqali muloqot madaniyatini shakllantirishning tizimli-metodik modeli ishlab chiqilgan. Model bosqichma-bosqich (5–6, 7–8, 9-sinflar) amalga oshirilishini nazarda tutadi va maqsad, mazmun, metodlar, vositalar hamda natija komponentlarini o'z ichiga oladi. Maqolada o'smirlik davri psixologik xususiyatlari, nutq uslublarining turlari (so'zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy) va ularning muloqot madaniyatini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Modelning metodik jihatdan asoslanganligi va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** muloqot madaniyati, nutq uslublari, tizimli-metodik model, 5-9-sinflar, kommunikativ kompetensiya, o'smirlar*

## A SYSTEMATIC METHODOLOGICAL MODEL FOR DEVELOPING COMMUNICATION CULTURE IN 5TH–9TH GRADE STUDENTS (BASED ON TEACHING SPEECH STYLES)

***Abstract.** This article presents a systematic methodological model for developing communication culture in 5th–9th grade students of secondary schools through teaching speech styles. The model involves a stage-by-stage implementation (grades 5-6, 7-8, and 9) and includes the components of purpose, content, methods, tools, and results. The article analyzes the psychological characteristics of adolescence, the types of speech styles (colloquial, artistic, scientific, journalistic, official-business), and their role in the formation of communication culture. The methodological validity of the model is substantiated, and the possibilities for its implementation into practice are demonstrated.*

***Keywords:** communication culture, speech styles, systematic methodological model, grades 5–9, communicative competence, adolescents*

## ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ 5–9 КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ОБУЧЕНИЯ СТИЛЯМ РЕЧИ: СИСТЕМНО-МЕТОДИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ

***Аннотация.** В данной статье разработана системно-методическая модель формирования культуры общения у учащихся 5–9 классов общеобразовательных школ на основе обучения стилям речи. Модель предполагает поэтапную реализацию (5–6, 7–*

8, 9 klassy) i vключает в себя компоненты цели, содержания, методов, средств и результата. В статье анализируются психологические особенности подросткового возраста, типы стилей речи (разговорный, художественный, научный, публицистический, официально-деловой) и их роль в формировании культуры общения. Обоснована методическая состоятельность модели и показаны возможности её внедрения в практику.

**Ключевые слова:** культура общения, стили речи, системно-методическая модель, 5-9 классы, коммуникативная компетенция, подростки

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Ayniqsa, o'smirlik davri – 5–9-sinflarda o'quvchilarning nutqiy faoliyati sifat jihatidan o'zgaradi: muloqot doirasi kengayadi, ijtimoiy munosabatlardagi roli murakkablashadi, nutqiy xatti-harakatlarga nisbatan talablar ortadi. Shu bilan birga, amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar turli nutqiy vaziyatlarda til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalana olmaydi, nutq uslublarini farqlamaydi, muloqot odobi qoidalariga rioya qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Nutq uslublarini o'qitish orqali muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi tilshunoslik va pedagogikaning kesishgan sohasida joylashgan bo'lib, ushbu muammoning metodik jihatdan yetarlicha ishlanmaganligi, ayniqsa 5–9-sinflar misolida tizimli yondashuvning yo'qligi tadqiqotimiz dolzarbligini belgilaydi. Maqolaning maqsadi umumta'lim maktablarining 5–9-sinf o'quvchilarida nutq uslublarini o'qitish orqali muloqot madaniyatini shakllantirishning tizimli-metodik modelini ishlab chiqish va nazariy asoslashdan iborat. Maqolada bir qancha vazifalar belgilab qo'yilgan. Ya'ni muloqot madaniyati va nutq uslublari tushunchalarining o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. 5–9-sinflar uchun bosqichma-bosqich metodik model komponentlari tavsiflanadi. Har bir bosqichda nutq uslublarini o'qitish va muloqot madaniyatini shakllantirish mazmuni asoslanadi. Modelning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Muloqot madaniyati muammosi turli fanlar – tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika doirasida o'rganilgan. Tilshunoslikda muloqot madaniyati

“nutq madaniyati” tushunchasi bilan bog‘liq holda, til vositalaridan me‘yorlarga mos va vaziyatga muvofiq foydalanish sifatida talqin qilinadi (A.G‘ulomov, 1985; M.Hamrayeva, 2007). V.V.Vinogradov (1963) va L.V.Shcherba (1974) kabi rus tilshunoslari nutq uslublari tizimini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynagan bo‘lib, ularning qarashlariga ko‘ra, nutq uslublarni o‘zlashtirish tilni to‘laqonli egallashning asosiy ko‘rsatkichidir. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda muloqot madaniyati shaxsning kommunikativ kompetensiyasi tarkibiy qismi sifatida qaraladi. L.S.Vygotskiy (1982) o‘smirlik davrida nutqiy tafakkurning rivojlanishi, abstrakt tushunchalarni o‘zlashtirish va ichki nutqning murakkablashishi jarayonlarini tahlil qilgan. J.Piaje (1969) esa o‘smirlarda egosentrik nutqdan sotsializatsiyalashgan nutqqa o‘tish xususiyatlarini ko‘rsatgan.

O‘zbek pedagogikasida B.Xodjayev (2004), M.Quronov (2001) kabi olimlar ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqqan. Biroq 5–9-sinflarda nutq uslublarni o‘qitish asosida muloqot madaniyatini shakllantirishga tizimli yondashuv metodik jihatdan hozirgacha yetarlicha ishlanmagan.

Nutq uslublari turlari – so‘zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy-ish uslublari – o‘zbek tilshunosligida R.Kungurov (1972), Sh.Rahmatullayev (1984) va boshqalar tomonidan tavsiflangan. Muloqot madaniyati esa ushbu uslublarni vaziyatga mos qo‘llay olish, nutqiy me‘yorlarga rioya qilish, tinglovchini hisobga olish, nutqiy etiket qoidalarini bilish va amal qilish kabi komponentlarni o‘z ichiga oladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muloqot madaniyati va nutq uslublari o‘rtasidagi bog‘liqlik nazariy jihatdan tan olingan bo‘lsa-da, 5–9-sinflar uchun ushbu bog‘liqlikni amalga oshiruvchi tizimli metodik model mavjud emas. Mazkur tadqiqot ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

### **5–9-sinf o‘quvchilarida muloqot madaniyatini shakllantirishning tizimli-metodik modeli quyidagicha:**

Ishlab chiqilgan tizimli-metodik model quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat:

Birinchisi maqsadli komponent bo‘lib, u 5–9-sinf o‘quvchilarida nutq uslublarni o‘qitish orqali muloqot madaniyatini shakllantiradi. Maqsad umumiy va xususiy

vazifalar orqali konkretlashtiriladi. Umumiy vazifada o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi rivojlantiriladi. Xususiy vazifada nutq uslublarini farqlash, vaziyatga mos uslubni tanlash, nutqiy me'yorlarga rioya qilish, muloqot etiketini o'zlashtirish kabi masalalar o'rganiladi.

Ikkinchisi mazmuniy komponent bo'lib, u nutq uslublari va muloqot madaniyatiga oid bilim, ko'nikma va malakalar tizimini shakllantiradi. Mazmun 5–9-sinflar kesimida bosqichma-bosqich belgilangan.

Uchinchisi metodik komponent bo'lib, o'qitish metodlari, usullari va texnologiyalarini shakllantiradi. Bunda tushuntirish, suhbat, hikoya qilish; stilistik tahlil mashqlari; kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish; rolli o'yinlar, diskussiyalar; matnni stilistik jihatdan tahlil qilish va o'zgartirish kabi masalalar o'rganiladi.

To'rtinchisi vositalar komponenti bo'lib, u darsliklar, o'quv qo'llanmalari, tarqatma materiallar, nutqiy vaziyatlar to'plami, multimedia vositalarini o'z ichiga oladi.

Beshinchisi natija komponenti bo'lib, u o'quvchilarda muloqot madaniyatining shakllanganlik darajasini belgilab beradi. Unda nutq uslublarini bilish va farqlay olish, kommunikativ vaziyatga mos uslubni tanlay olish, nutqiy me'yorlarga rioya qilish, muloqot etiketi qoidalarini amalda qo'llay olish kabi masalalar o'rganiladi.

Modelning bosqichlari 5–9-sinflar kesimida o'rganiladi. Model 5–6, 7–8 va 9-sinflar uchun alohida bosqichlarni nazarda tutadi. Har bir bosqich o'quvchilarning yosh xususiyatlari, nutqiy rivojlanish darajasi va o'quv dasturidagi nutq uslublariga oid mavzular ketma-ketligiga asoslangan. 1-bosqichda 5–6-sinflarda so'zlashuv va badiiy uslublar asosida muloqot odobini shakllantirish nazarda tutiladi. 5–6-sinflarda o'quvchilarning nutqiy rivojlanishida og'zaki nutq yetakchi o'rin tutadi. Ushbu bosqichda asosiy e'tibor so'zlashuv uslubi va badiiy uslub elementlarini o'rgatishga qaratiladi. Buning mazmuni shuki, so'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyatlari (soddalik, emotsionallik, qisqartmalar), badiiy asarlardagi personajlar nutqi orqali muloqot odobi namunalari, muloqot etiketining asosiy qoidalari (salomlashish, xayrlashish, murojaat shakllari, minnatdorchilik bildirish), so'zlovchi va tinglovchi pozitsiyalaridagi xulq-atvor farqlari o'rganiladi. Bu bosqich uchun metodik vositalar sifatida dialoglar tahlili, rolli o'yinlar ("Do'konda", "Kutubxonada", "Mehmonda"), badiiy matnlardagi muloqot sahnalarini o'qish va tahlil qilish, muloqot vaziyatlariga

oid rasmlar asosida dialog tuzish kabi vositalarni ko'rsatish mumkin. Bu bosqichdan kutiladigan natija shuki, o'quvchi kundalik muloqotda so'zlashuv uslubidan foydalana oladi, oddiy muloqot vaziyatlarida etiket qoidalariga amal qiladi, badiiy asar qahramonlari nutqidagi muloqot odobi xususiyatlarini tahlil qila oladi.

Keyingi bosqichda 7–8-sinf o'quvchilarini ilmiy va publitsistik uslublar asosida fikrni asosli ifodalash ko'nikmasi rivojlantiriladi. 7–8-sinflarda o'quvchilarda mavhum tafakkur rivojlanadi, o'z fikrini asoslash, dalil keltirish, bahs-munozarada ishtirok etish qobiliyati shakllana boshlaydi. Ushbu bosqichda ilmiy va publitsistik uslublar o'rgatiladi. Ushbu bosqichning mazmuni shuki, ilmiy uslubning xususiyatlari (terminlar, aniq ifodalar, dalillilik, mantiqiylik), publitsistik uslubning xususiyatlari (ta'sirchanlik, baholovchilik, obrazlilik), o'quv-ilmiy matnlar (darslik, ensiklopediya) bilan ishlash, publitsistik matnlar (maqola, intervyu, nutq) tahlili, bahs-munozara madaniyati: o'z fikrini asoslash, raqib fikrini tinglash, e'tiroz bildirish odobi kabilar bilan belgilanadi. Bu bosqichdagi metodik vositalar sifatida o'quv-ilmiy matnlarni konspektlashtirish, rejalashtirish; ma'lum mavzu bo'yicha tezislarni tuzish, munozara, debat elementlari; publitsistik matn (maqola, ochiq xat) yozish, nutqiy vaziyatlar: "Maktab devoriy gazetasiga maqola", "Sinfda saylovoldi nutq" kabilardan foydalanish mumkin. Bundan kutiladigan natija shuki, o'quvchi ilmiy va publitsistik uslublarni farqlay oladi, o'z fikrini asosli va dalilli ifodalay oladi, munozarada muloqot odobi qoidalariga rioya qiladi.

So'nggi bosqichda 9-sinf o'quvchilarida rasmiy-ish uslubi va turli vaziyatlarga mos uslubni tanlash kompetensiyasi shakllantiriladi. 9-sinfda o'quvchilar kattalar hayotiga yaqinlashadi, turli rasmiy vaziyatlarda (hujjat to'ldirish, ariza yozish, intervyu berish) qatnashishga tayyorgarlik ko'radi. Ushbu bosqichda rasmiy-ish uslubi o'rgatiladi va oldingi bosqichlarda o'zlashtirilgan uslublarni turli vaziyatlarga mos tanlash kompetensiyasi rivojlantiriladi. Bu bosqichning mazmuni rasmiy-ish uslubining xususiyatlari (qat'iy me'yorlik, shablonlik, aniq ifodalilik), hujjat turlari va ularni rasmiylashtirish (ariza, tushuntirish xati, bayonnoma), nutq uslublarini qiyosiy tahlil qilish (bir mazmuni turli uslublarda ifodalash), kommunikativ vaziyatlar tipologiyasi (rasmiy, norasmiy, yarim rasmiy) va ularga mos uslubni tanlash, nutqiy portret: muloqot vaziyatiga qarab til vositalarini tanlash kabilarni

o'z ichiga oladi. Metodik vositalar sifatida hujjatlar (ariza, tarjimai hol) yozish amaliyoti, turli uslublarda yozilgan matnlarni qiyosiy tahlil qilish, kommunikativ vaziyatlar bilan ishlash, "Uslubni tanla" tipidagi mashqlar, intervyu olish va berish amaliyotini qo'llash mumkin. Bundan kutiladigan natija shuki, o'quvchi barcha nutq uslublarini farqlay oladi, kommunikativ vaziyatga mos uslubni tanlay oladi, rasmiy-ish uslubida matn (ariza, xat) tuza oladi, muloqot etiketiga to'liq rioya qiladi. Model asosida bir qancha metodik vositalar tizimi ishlab chiqilgan. Stilistik tahlil mashqlari metodik vositasi matndagi uslubiy xususiyatlarni aniqlaydi. Barcha bosqichlar uchun mos keladi. Kommunikativ vaziyatlar metodik vositasi muayyan vaziyat uchun mos nutqni tanlash bo'lib, 2–3-bosqichlarni o'z ichiga oladi. Rolli o'yinlar metodik vositasi bo'lib, muloqot vaziyatlarini modellashtiradi va u 1–2-bosqichlar uchun to'la mos keladi. Diskussiya elementlari metodik vositasida bahs-munozara madaniyati o'rgatiladi va u 2-bosqich uchun mos keladi. Matnni uslubiy o'zgartirish esa bir uslubdagi matnni boshqa uslubda ifodalash uchun ishlatiladi. U 2–3-bosqichlar uchun mos keladi. Hujjat yozish amaliyoti esa rasmiy-ish uslubini o'zlashtirishda ishlatiladi, 3-bosqich uchun mos keladi.

Ishlab chiqilgan model umumta'lim maktablarining 5–9-sinflarida ona tili va adabiyot darslarida amalga oshirilishi mumkin. Modelning amaliy ahamiyatining asosiysi tizimlilikda bo'lib, model nutq uslublarini o'qitishni bir-biri bilan bog'liq bosqichlar ketma-ketligida tashkil etish imkonini beradi. Har bir bosqich oldingi bosqichga asoslanadi va keyingi bosqich uchun zamin yaratadi. Keyingisi yosh xususiyatlariga moslik bo'lib, bosqichlar o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari (5–6-sinflarda konkret- obrazli tafakkur, 7–8-sinflarda mavhum tafakkurning rivojlanishi, 9-sinfda o'z-o'zini anglashning kuchayishi) bilan uyg'unlashtirilgan. Yana biri metodik vositalarning xilma-xilligi bo'lib, model an'anaviy mashqlardan tortib, interfaol metodlar, rolli o'yinlar va real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishgacha bo'lgan keng vositalar tizimini taklif etadi. So'nggisi o'quv dasturi bilan integratsiya bo'lib, model mazmuni 5–9-sinflar ona tili va adabiyot dasturlaridagi "Nutq uslublari", "Matn tuzilishi", "Nutqiy faoliyat turlari" kabi mavzular bilan uzviy bog'langan.

## XULOSA

Maqoladan olingan xulosa shuki, muloqot madaniyati va nutq uslublari o'rtasidagi bog'liqlik nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, ushbu bog'liqlikni amaliyotga tatbiq etish tizimli metodik modelni talab qiladi. Ishlab chiqilgan tizimli metodik model 5–9-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda uch bosqichli tuzilishga ega. Model maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va natija komponentlaridan iborat bo'lib, ushbu komponentlar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Modelning metodik vositalari tizimi stilistik tahlil mashqlari, kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlar, diskussiya elementlari, matnni uslubiy o'zgartirish va hujjat yozish amaliyotini o'z ichiga oladi. Taklif etilayotgan model umumta'lim maktablarining 5–9-sinflarida ona tili va adabiyot darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lib, o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishda tizimli yondashuvni ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 240b.
2. Namrayeva M. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 180 b.
3. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Наука, 1963. – 255 с.
4. Щчерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974. – 428 с.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982. – 362 с.
6. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969. – 173 p.
7. Xodjayev V. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2004. – 328 b.
8. Quronov M. O'zbek tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari // Til va adabiyot ta'limi. – 2001. – №5. – B. 23–27.
9. Kungurov R. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1972. – 192 b.
10. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 344 b.
11. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2004. – 384 с.
12. Yusupova Sh. Nutqiy faoliyat va uning turlari // Filologiya masalalari. – 2015. – №2. – B. 45–49.
13. Qodirova M. O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2020. – №3. – B. 112–117.
14. Karimova V. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – 180 b.
15. To'xliyev B. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangiyo'l poligrafservis, 2011. – 248 b.